



## UZBEKISTAN'S REGIONAL DIPLOMACY IN CENTRAL ASIA

*Mohigul Djurayeva*

Assistant Lecturer

"Ipak Yuli" International University of Tourism and Cultural Heritage

e-mail: [m.djuraeva@mail.ru](mailto:m.djuraeva@mail.ru)

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Uzbekistan, Central Asia, diplomacy, regional cooperation, international relations, political strategy.

**Received:** 19.12.25

**Accepted:** 20.12.25

**Published:** 21.12.25

**Abstract:** Uzbekistan's diplomatic activity in the Central Asian region is increasingly shaping as one of the key and priority directions of the country's foreign policy. The development of relations based on mutual trust, open dialogue, and a balance of interests with regional states constitutes the core principles of Uzbekistan's diplomacy. In recent years, the initiatives put forward by the country have contributed to intensifying political dialogue, expanding trade and economic cooperation, and integrating transport and logistics capabilities. At the same time, Uzbekistan's balanced approach to the rational use of water and energy resources, joint resolution of environmental issues, and strengthening regional security is of particular significance.

## O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYODAGI MINTAQAVIY DIPLOMATIYASI

*Mohigul Djurayeva*

Assistent - o'qituvchi

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

[m.djuraeva@mail.ru](mailto:m.djuraeva@mail.ru)

Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Markaziy Osiyo, diplomatiya, mintaqaviy hamkorlik, xalqaro munosabatlar, siyosiy strategiya.

**Annotasiya:** O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi diplomatik faoliyati davlat tashqi siyosatining muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Mintaqa davlatlari bilan

o‘zaro ishonch, ochiq muloqot va manfaatlar muvozanatiga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish O‘zbekiston diplomatiyasining asosiy tamoyillarini tashkil etadi. So‘nggi yillarda mamlakat tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar siyosiy muloqotni faollashtirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda transport va logistika imkoniyatlarini birlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, suv-energetika resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni birgalikda hal etish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash masalalarida O‘zbekistonning muvozanatli yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi.

---

## РЕГИОНАЛЬНАЯ ДИПЛОМАТИЯ УЗБЕКИСТАНА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

*Мохигул Джураева*

*ассистент-преподаватель*

*Международный университет туризма и культурного наследия «Шёлковый путь»*

*электронная почта: [m.djuraeva@mail.ru](mailto:m.djuraeva@mail.ru)*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Узбекистан, Центральная Азия, региональное сотрудничество, международные отношения, политическая стратегия.

**Аннотация:** Дипломатическая деятельность Узбекистана в регионе Центральной Азии формируется как одно из важных и приоритетных направлений внешней политики государства. Развитие отношений, основанных на взаимном доверии, открытом диалоге и балансе интересов со странами региона, составляет основные принципы узбекской дипломатии. Инициативы, выдвигаемые страной в последние годы, направлены на активизацию политического диалога, расширение торгово-экономических связей, а также интеграцию транспортно-логистических возможностей. Вместе с тем особое значение приобретает взвешенный подход Узбекистана к вопросам рационального использования водно-энергетических ресурсов, совместного решения экологических проблем и укрепления региональной безопасности.

---

**Kirish.** Mustaqillik yillarida xalqimizning o‘z o‘tmishiga qiziqishi kuchaydi. O‘zligimizni anglash, tariximizni o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Chunki, xalqimizning madaniy-ma’rifiy an’analari va merosini o‘rganishda, milliy g‘oyaning shakllanishida tarix fanining

ahamiyati beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov belgilab bergan muhim vazifalar va tarixchi olimlar oldiga qo'yilgan masalalar shundan iboratki, asl manbalarga tayangan holda Vatanimiz tarixiga yangicha yondoshib, qadimgi davrdan to bizning zamonimizgacha bo'lgan tarixiy jarayonlarni va voqyealarni o'rganishimiz zarur. Ayniqsa mustaqillik yillari tariximizning eng shonli davridir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek "Mustaqillik yillari o'z o'tmishimizni, o'z madaniyatimizni xolisona bilib olish davridir. Bu jahon hamjamiyati, tarix oldidagi vazifamizni anglab olish davridir"[1].

Tariximizning ana shu o'tgan davrini aniqrog'i chorak asrlik mustaqil taraqqiyotimiz sarhisob qilinar ekan, tashqi siyosat va diplomatik xizmatni shakllantirish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni ham alohida qayd qilish lozim.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik davrigacha respublika Tashqi ishlar vazirligi apparatida bor yo'g'i 10—15 nafar xodim bo'lib, ular nomigagina vazifasi hisoblangan ishlar, ya'ni protokol majburiyatlari va turli tadbirlar, asosan chet ellik mehmonlarni qabul qilish bilan shug'ullanardi, xolos. O'sha davrda tashqi ishlar vaziri lavozimida ishlagan bir amaldor ayni paytda kommunal sohasini ham boshqarganining o'ziyoq bu masalaga qanday yuzaki qaralganini ko'rsatib turibdi.

Istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab o'ta muhim tashqi siyosiy masalani hal qilishga, davlatlararo siyosiy va iqtisodiy muno-sabatlar sohasida eng maqbul yo'llarni topishga to'g'ri keldi. G'oyat qisqa fursatda bu sohada Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar qo'mitasi, keyinchalik esa, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va boshqa qator davlat boshqaruv organlari tuzildi, diplomatik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yaratildi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy diplomatiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar siyosiy, iqtisodiy, madaniy va strategik yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilar bu masalalarni turli nazariy yondashuvlar orqali o'rganib, O'zbekiston tashqi siyosatining mintaqaviy diplomatiyadagi o'sishini chuqur tahlil qilganlar.

Islom Karimov (1993) o'z asarida O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi taraqqiyot yo'lini va tashqi siyosat strategiyasini yoritadi. Muallif ta'kidlaydiki, Markaziy Osiyoda barqarorlik va mintaqaviy integratsiya O'zbekistonning milliy manfaatlarini ilgari surish va iqtisodiy, siyosiy hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi [1].

Bekmurodov A. (2010) esa O'zbekistonning ichki taraqqiyoti, xalqaro maydondagi roli va inson resurslari orqali diplomatik imkoniyatlarini tahlil qiladi. Muallif mintaqaviy diplomatiya faqat siyosiy va iqtisodiy jarayon emas, balki madaniy va insoniy boyliklar bilan mustahkamlanadigan kompleks jarayon ekanligini ta'kidlaydi [2].

Ko'charov Ch.Sh. (2005) Markaziy Osiyoning mintaqaviy integratsion jarayoni va uning muammolarini o'rganadi. Muallif O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy

aloqalari, transport va energetika sohasidagi roli, shuningdek, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi imkoniyatlarini tahlil qiladi [3].

Alimov A. (1992) O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati va chet el bilan aloqalarini o'rganadi. Muallif mamlakatning eksport-import salohiyati, strategik iqtisodiy tashabbuslari va mintaqaviy integratsiyaga qo'shgan hissasini tahlil qiladi. Alimovning ishida O'zbekistonning iqtisodiy diplomatiyadagi o'rni va samaradorligi ochiq ko'rsatib berilgan [4].

Shuningdek, Machin G.V. (2002) Markaziy Osiyodagi xalqlarning madaniy va gumanitar integratsiyasini yoritadi. U O'zbekistonning mintaqaviy diplomatiyadagi madaniy hamkorlik va xalqlararo muloqotdagi rolini tahlil qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy diplomatiya nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy-gumanitar yo'nalishlarni ham o'z ichiga oladi [5].

**Tahlil va Natijalar.** Mamlakatimizning qulay geosiyosiy o'rni, uning birinchi navbatda o'z milliy manfaatlarini inobatga olgan holda olib borayotgan, har tomonlama chuqur o'ylangan, mustaqil va izchil tashqi siyosati davlatimizning jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi, xalqaro maydonda obro'-e'tiborining ortib borishini ta'minladi. "Mustaqillik va suverenitet jahon hamjamiyatiga kirib borishimizga, barcha davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatishimizga imkoniyat yaratdi".

"O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasida e'tirof etilishicha, "O'zbekiston Respublikasi chet davlatlar bilan diplomatik, konsullik, savdo aloqalari va boshqa aloqalarni o'rnatadi, ular bilan muxtor vakillarni ayirboshlaydi, xalqaro shartnomalar tuzadi, xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lishi mumkin". Mazkur me'yor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham yanada rivojlantirilib, Konstitutsiyaning 17-moddasi 2-qismida respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, faravonligini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish va ulardan ajralib chiqish mumkinligi nazarda tutiladi.

Mustaqillikka qadar yurtimizda birorta ham xorijiy davlat elchixonasi yo'q edi. Hozirgi vaqtda chet ellarda mamlakatimizning 48 tadan ortiq diplomatik vakolatxonasi bor. O'zbekistonda esa 86 tadan ziyod elchixona va savdo vakolatxonasi akkreditatsiya qilingan. Hozirgi kunda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom Konferensiyasi tashkiloti, yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va qator ixtisoslashgan xalqaro tuzilmalar ishida faol ishtirok etib, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi hudud barpo etish, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq, shuningdek, xalqaro hamjamiyat oldida turgan boshqa dolzarb muammolarni hal etish ishiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Qolaversa bugungi kunda mustaqil Respublikamiz dunyoning ko'plab davlatlari bilan o'zaro iqtisodiy xamda madaniy, savdo-sotiq va

diplomatik, elchilik aloqalarini to'g'ri yo'lga qo'yib kelmoqda. Bunday aloqalarda birinchi navbatda o'zimizning yon qo'shnilarimiz bo'lmish Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi o'rinni egallaydi. O'zbekistonning mustaqillikka erishganidan so'ng Markaziy Osiyodagi mintaqaviy diplomatiyasi izchil rivojlanib, mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning mintaqaviy diplomatiyasi siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik va madaniy-gumanitar yo'nalishlarni birlashtirgan kompleks jarayon bo'lib, u mamlakatning milliy manfaatlarini ilgari surish, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan. Ushbu bo'limda O'zbekistonning mintaqaviy diplomatiyasining asosiy yo'nalishlari, amalga oshirilgan tashabbuslar va ularning natijalari batafsil tahlil qilinadi.

Avvalo, siyosiy diplomatiya sohasida O'zbekistonning strategik tashabbuslari markaziy ahamiyatga ega. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat o'z tashqi siyosatini shakllantirishda mustaqil va pragmatik yondashuvni tanladi. Bu yondashuv mintaqadagi barcha qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatlarga asoslangan hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan edi.

O'zbekistonning davlat rahbarlari tomonidan olib borilgan tashqi siyosiy tashabbuslar nafaqat diplomatik aloqalarni mustahkamladi, balki mintaqaviy forumlarda O'zbekistonning mavqeini oshirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, mamlakatning tashqi siyosati mintaqadagi siyosiy barqarorlikni saqlash va milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan edi. Masalan, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi strategik hamkorlik, suv resurslarini boshqarish va chegaraviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan diplomatik muzokaralar orqali mustahkamlandi. Bu jarayon mintaqaviy integratsiyaning birinchi darajali siyosiy omili sifatida xizmat qildi.

Iqtisodiy diplomatiya O'zbekiston tashqi siyosatining ikkinchi muhim yo'nalishi bo'lib, u mintaqaviy integratsiya va savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan. Mustaqillikdan keyin O'zbekiston iqtisodiy diplomatiyani faollashtirib, transport-logistika yo'nalishlari, energetika va savdo sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirdi. Shu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijasida mamlakatning iqtisodiy hamkorlikdagi mavqeini aniqlash imkoniyati yaratildi. O'zbekistonning transport tarmoqlarini rivojlantirish, tranzit yo'llari orqali mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish va energetika resurslarini qo'shma loyihalar asosida boshqarish tashabbuslari mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, iqtisodiy diplomatiya orqali mamlakat investorlarni jalb qilish, eksportni kengaytirish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada, O'zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy integratsiyada ishtiroki ortib, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga imkon yaratildi.

**Xulosa.** O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy diplomatiyasi mustaqillikdan keyingi davrda izchil rivojlanib, mamlakat tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning diplomatiyasi siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik va madaniy-gumanitar komponentlarni birlashtirgan kompleks va ko‘p qirrali jarayon sifatida shakllangan. Siyosiy diplomatiya yo‘nalishida O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan strategik hamkorlikni rivojlantirish, mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlash va milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan samarali tashabbuslarni amalga oshirdi. Iqtisodiy diplomatiya orqali mamlakat transport-logistika, energetika, savdo va investitsiya sohalarida qo‘shma loyihalarni yo‘lga qo‘yib, mintaqaviy integratsiyani kuchaytirdi.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik borasidagi tahdidlarni bartaraf qilishning engoqilona yo‘li davlatlar va ularning mintaqaviy integrallashuvini mustahkamlashdir. Buning asosida kafolati va markazi O‘zbekiston bo‘lgan mintaqa barqarorligini ta‘minlovchi birlashmani yaratish yotadi. Chunki, istalgan hudud, jumladan Markaziy Osiyoda geosiyosiy vakuum hosil bo‘lgan taqdirda, boshqa davlatlarning aralashuvi ehtimoli o‘shib boradi va bu butun mintaqadagi barqarorlik kasalbiy ta‘sir qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Islom Karimov . O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li.-T.: O‘zbekiston, 1993-yil.
2. Bekmurodov A. Bu muqaddas vatanda azizdir inson. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil.
3. Ko‘charov Ch.Sh. Markaziy Osiyoning mintaqaviy integratsion jarayoni muammolari.- T.: Fan, 2005-yil
4. Алимов А. Внешнеэкономическая деятельность Республики Узбекистан: взгляд в будущее. - Тошкент: Узбекистан, 1992.
5. Мачин Г.В. Асамблея культур народов стран Центральной Азии и ее деятельность. Т., 2002.
6. Boboev A. Hamkorlikning yangi bosqichi // Xalq so‘zi -2006 -21 mart
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning SHHT davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi gazetasi, 2007 yil 17 avgust.